

Ingichka bir ariq va bir qator binafsha gul: baxmal yuzlari va xumor ko'zlari bilan koptokchalardek g'ildirayotgan suv pufakchalariga termulgan binafshalar.

Ariqning bo'yida o'tirib organimcha unda oqayotgan suv salqinligiga barmoqlarimning uchi bilan amin bo'laman. Shamshodlar ortidan ularni ko'raman: shuur va idrokning za'faronrang chegarasidan narigi tomonda turgan, tashqariga qarashdan oldin ichkariga tikilib qolgan odamlarni. Men ham shulardekmanni?

Ulardan qo'rqaman. Ham qo'rqaman, ham yaxshi ko'raman. Ilk kunlarda yaxshi ko'rishdan ko'ra ko'proq qo'rqardim. Ammo endi qo'rqishdan ko'ra ko'proq yaxshi ko'raman. Shunga qaramay qochishga bo'lgan istagim kuchliroq. Biroq haliyam shu yerda o'tiribman va binafshalarning xumor ko'zlariga mahliyoman. Qochishning yo'lli bormikan?

Men tomon kelayotgan hamshiraning qo'lida bir stakan, mendan yashirib kelayotgan hovuchida esa, albatta, hapdori! Sariqmi yoki moviyimi, farqi yo'q! Ulearning vazifasi - meni larzaga solish, ostin-ustin qilish. Chuqur kavlaydilar va uni yana tuproq bilan to'ldiradilar. Toki mendan yangi bir odam paydo bo'lguniga qadar: ranj-alam tortmaydigan, yig'lamaydigan, barmoqlarining har bir bo'g'ini bekordan-bekorga titramaydigan, sigareta tutatmaydigan va o'ylamaydigan... o'y... o'y...

Hapdorilarni olaman. Ikki oydan buyon ularni olaman va tomog'imga tashlayman. Majburlashini istamayman. Birinchi kunlari qarshilik qilganimda uning majburlashi qo'pollik va zo'ravonlik tusini olardi. Birinchi kunlari men to'g'ri gapiryapman, deb o'ylardim. Ammo bora-bora tomog'imga tiqqan moviy va sariq hapdorilar bilan birgalikda shuni tushuntirib qo'yishdiki, men xato qilyapman. Meni qo'yib yuborishlari uchun "xato qilyapman", deb aytishim kerak edi. Hech bir narsa ozodlikdan yaxshiroq emas!

Shamol kabi ozod bo'lish: bir joyda qolishni bilmaydigan shamol kabi. Harakatlana olish uchun ozod bo'lish. Ko'zlarining yumasan va yerdan qaynab chiqayotgan kunbotarning muloyim bug'lari ostida bolaligingga qaytasan. Ko'chalardan o'tasan.

Uylarning eshiklarini taqillatasan. Dolchin sepilgan sariq shulla[1] va nazr qilib pishirilgan sumalak tarqatasan. So'ngra eshikning ochilgan ikki tabaqasi orasidan, chetga surilgan bo'z parda ortidan bir parcha asalga o'xhash nigohni, shuningdek, yuqorigacha o'rmalab chiqib ketgan nilufar gulining shoxini ko'rasan. Hovuzning labidagi so'rida qul-qul qilib qaynayotgan samovarning bug'ini ko'rasan. Shundan so'ng havoga o'zining xushbo'y hidini taratayotgan qizil atirgulning gulbarglari bilan ortingga qaytasan. So'ngra qadamlarni tezlashtirasen. Butun yo'lni yugurib bosib o'tasan. Ko'chalardan o'tasan. Dolchin va gulob hidini o'zing bilan birga olib kelasan. Sumalakning idishidan tushib qolgan bodomni hovuchingda mahkam siqasan. Shunchalik darajada siqasanki, uning yopishqoqligi yuragingni siqadi. Keyin esa yo'l-yo'lakay bir skameykaga o'tirasen: qorishma ichra g'ildirab aylanayotgan bodomdek ko'zlarining yumib. Boshdan-oyoq charchoq, boshdan-oyoq yopishqoqlik, boshdan-oyoq shirinlik! Na bir zanjir, na biror siqilish, na biron tepki, na biron majburlash... Yig'lagim keladi. Shirin uyqumdan sakrab turaman.

Hamshira ketgan. U hapdorini ichganimga ishonch hosil qildi. U menga yashirin bir zanjir solgan, shuning uchun ham endi men bilan ishi yo'q. U o'z vazifasini bajardi:

Endi doppa-durust bir odamga aylanding!

Bu shu kunlarda u menga takror-takror aytayotgan gap.

Suv haliyam xirgoyi qiladi. Binafshalar ohista nafas oladilar. Botayotgan quyosh nurlari ularning nozik yelkalariga og'irlilik qiladi.

Azon ovozi keladi. Qalbim yoriladi. Qalbim og'riqdan tars yorilishni istaydi: ruhiyatimning ming bir burchagidan siqib kelayotgan og'riqdan.

O'rnimdan turib tahorat olishim kerak. Unda nega yig'layapman? G'urbatdaligim uchunmi? O'z diyorumni qo'msayotganim uchunmi? O'tmishim suv qa'ridan qaynab chiqib, pufakka aylanayotgani va yana qaytadan yorilib ketayotgani uchunmi?

Erkak ham yig'laydimi?

Otamning baqirgan ovozi eshitiladi:

Senam erkakmisan?

Ko'z yoshlarimni artaman:

Ota, bu shimning hamma joyi yamoq. Uni kiymayman!

Ota, sumkam va kitoblarimni qo'lting'imga olib, ularni eski lattaga o'rab yurishdan obro'yim to'kildi...

Ota, mehmonlaringga ziyofatlik olib kelib berishdan uyalaman. Boshqa biror kishi shu ishni qilaqolsin...

Otamning faryodi ko'kka yetadi:

Qachon odam bo'lasan? Qachon erkak bo'lasan? Qachon mana bu min-g'ir-ming'irlaringni yig'ishtirasen? Bozordagi do'kon seniki, bir-birining ustiga taxlab qo'yilgan gilamlar seniki, bog' seniki, katta yo'lning yoqasidagi yer seniki. Bularning bari seniki. Bularning hammasi pul-ku!... Sen bularni saqlab qolishing uchun bor pulni sarflashing emas, pul topishni bilmog'ing lozim. Sen Hoji Noyibning o'g'li ekanligingni tushunishing kerak. Qanday qilib birni ikkiga aylantirishni bilishing kerak.

Tushunaman, ota, ammo...

Men erkak bo'lisingni istayman, lavlagining bargiga o'xshab lapashang bo'lisingni emas, qiztalоq!

Ota, menga yordam ber! Meni masxara qilma!

Odam firibgar bo'lishi kerak! Birni mingga uradigan bo'lishi kerak! Odam tegirmonga tushsa butun chiqadigan bo'lishi kerak!...

Ammo onamning joynamozi solingen. Umidsizlikning isi keladi.

Ona, shimimda yamoq bor.

Yuzlarining chekkasi qizaradi.

O'zim senga sotib olib kelaman. Mato sotib olaman-da, o'zim senga shim tikib beraman. Mana shu qo'llarim bilan!

Qo'llari toliqqanlikdan qaltiraydi.

Unda otam pullarini kimga sarflamoqchi? Nimaga sarflamoqchi?

Hammasi seniki. Sen uning yolg'iz merosxo'risan... Hammasini senga qoldirib ketadi.

Meniki? Axir shiminning hamma joyi qirqyamoq-ku?! Axir kitob-daftarlарim tugunchada-ku?! Men... agar qo'llimdan kelganida edi, bo'g'ardim!

Onam dodlaydi:

Sen gilamfurush Hoji Noyibning o'g'li, uning yolg'iz merosxo'risan! Nima, bularning barchasini ermakka yig'ibdimi?! Ne umid bilan chiqqan?! Seni zo'rg'a o'qishingdan chiqarib oldim. Endi bo'lsa sen...

Ona, sen ham yolg'on gapiryapsan. U seni ham o'zining yolg'onlariga ishontiribdi. Sening chiroyli yuzingni ham vaqtidan ancha oldin qaritibdi. Sening tiniq nigohlaringni ham xira qilib qo'yibdi. Oppoq qo'llaringni ham qavartiribdi. Sening ruhingni ham xona va ombor, ichkari hovli va tashqari hovli o'rtasida ovora qilib qo'yibdi. Ona, uning bu gaplari yolg'on ekanligiga ishommaydigan o'sha yoshlik chog'laringni sog'inaman.

Ona, o'sha baxmal qoplangan sandiqchang, undagi kitoblaring, cho'ntak oynachang, isiriq solingen xaltachang qani? Ona, meni o'zing bilan olib ket. Meni isirig'ingdan chiqayotgan moviy tutun bilan birga olib ket. Bu yomon ko'zlardan judayam charchadim. Bu qarashlardan, bu yolg'onlardan, bu qorong'uliklardan ham!...

Ona, meni qiyinchilik bilan katta qilding. Men katta bo'lmas edim. Fonuslar yonida, kabutarlar ini oldida, zilol suvning bo'yida turgan bo'lardim, ammo katta bo'lmasdim. Men yolg'on, qorong'ulik va ifloslik bilan katta bo'lmasdim. Meni mashaqqat bilan katta qilding. Oynaga o'xshab qarshimda turib olding va hadeb: "Katta bo'l! Tezroq, tezroq! Otang yolg'iz. Sen Hoji Noyib gilamfurushning yolg'iz o'g'lisan. Otang erkak bo'lishingni istaydi, ha, erkak bo'lishingni!" deding.

Gilam savdosi bilan shug'ullanadigan katta savdogar. Boylik ustiga boylik. Ammo unda nega qo'llaring qaltirayapti, ota? Ushbu boylikning har bir tiyini uchunmi?

\* \* \*

Bog'ning etagida oqsoch Ruqiya xolaning xonasi. Ruqiya xola sholcha ustida uxmlaydi, sholcha ustida o'tiradi, sholcha ustida kechlik qiladi, sholcha ustida yig'laydi, sholcha ustida xudo bilan gaplashadi. Nevarasi ham o'sha joyda katta bo'lyapti. Kelini ham o'sha joyda chaqaloq dunyoga keltiradi. Ko'rdim: nevarasining oyoqlari xuddi pishgan lavlagidek qizarib ketgan. Qarasam, uni sovuq suvda yuvintiradi. Qarasam, uni o'sha yerda sholcha ustiga qo'yib yubordi va yig'ladi. Bolaning ikki tishi xuddi marvariddek yaraqlaydi. Ruqiya xolaning marvaridlari ham ana shu.

Chuqr-chuqr nafas ola boshladim. U yerdan to katta mehmonxonagacha bo'lgan yo'lni yugurib bosib o'tdim. Gilamchani bag'rimga bosib olaman: yuzasida ohuning ov maydonida qochib borayotgan ohuning tasviri bo'lgan o'sha gilamchani.

Gilamchani unga olib boraman. Dahshatga to'la ko'zlari bilan menga qaraydi-da: "Xojamning o'g'li, xojamning o'g'li", deydi. Butun tun bo'yiy uyqum nurafshon bo'ladi. Ruqiya xolaning nevarasi qip-yalang'och gilamning yumshoq patlari ustida g'ildirab o'ynaydi va suvning shildirashiga o'xshab kuladi. Butun tun bo'yiy tishlari yulduzlardek porlab chiqadi.

Ammo ertalab boshimning ustida turasan: meni osishga shay bo'lgan dor kabi. Yuzimga tushgan tarsakining zarbidan uyg'onib ketaman.

Hali mening pullarimni shunday qilib avaylab-asramoqchimisan, hammol?!

Gaplaringga javob bermoqchi bo'laman, ammo ovozim chiqmaydi. So'kinish va ta'na-malomat yomg'iri ostida boshimni egaman, ammo ovozim chiqmaydi. Ruhim tilka-pora bo'lib ketadi, ammo hanuz gungu lolman. Nega?... Chunki pul topishni bilmayman. Onamning qo'lida o'sgan lapashangman. Axir onam yaxshi ayol. U mehr va vafoning, kechirimlilik va fidokorlikning, sabr va chidamlilikning timsoli...

Hamshira kelib boshimda to'xtaydi. Tuflilarini oyoqlarim oldida juft qiladi. Ya'nii: "Marhamat!" Ya'nii, parvoz tugadi va qafas menga mutazir. Binafshalarni, ariqchadagi suvni, kichik va ozod pufakchalarni allaqachon qorong'ulik ichib qo'yan.

Hamshiraga ergashaman. Zarracha qarshilik og'ir jazoga sabab bo'ladi.

Karavotning ustiga cho'zilishim bilan boshimni choyshabning tagiga olaman. Hamshira eshikni yopib chiqib ketadi. Ular ham kelishadi: baxmal kiyimning uxlagan va uyg'oq parchalari; zang uradigan soatning ovozi; supachada menga qarab o'tirgan it; zanjirning uchiga osilgan va havoda muallaq qolgan hushtak; oldinlari uchramagan moviy rangli kanakunjutlar; oyoqlari va qanolari uzilgan va faqatgina nigoh tashlab turgan pashsha.

Ular ertalabgacha men bilan birga bo'lishadi. Ketishadi va yana kelishadi. Oftob yuzini deraza oynasiga qo'yishi bilan men ham uyquga ketaman. Belanchak u tomondan-bu tomonga borib kelaveradi.

\* \* \*

Katta mehmonxonada ziyofat dasturxoni yozilgan. Otam do'stlari bilan qator bo'lib o'tirib olishgan. Labiga oltin suvi yugurtirilgan beli ingichka qadahlar, billur likopchalar, qimmatbaho sigaretalarning qoldiqlari bilan to'layotgan va bo'shayotgan kuldonlar... Ota, sen yig'layapsan! Ota, hali umid so'nganicha yo'q! Ota, sening qalbing hali to'laligicha sovuq va qora bo'lib ulgurganicha yo'q! Ota, sen haliyam Ruqiya xolaning qanchalik bechora ekanligiga ishonasan! Mahalladagi ko'mirfurushdan ko'mirining kukunini o'zingning hisobingdan Ruqiya xolaga berib turishini so'ranganingni o'zing aytding. Ammo... nega gilamni ularning tagidan tortib olding?

Ohuning o'q yeganini o'zim ko'rdim. Uning qonga g'arq bo'lganini o'zim ko'rdim. Ruqiya xolaning nevarasi yerga yiqlib tushganini va boshqa kulmaganini o'z ko'zlarim bilan ko'rdim. Uning joynamozini sholcha ustiga yozib, xudoga qaraganini ham o'zim ko'rdim.

Pul topmas noshud! Hali mening mol-dunyomni shunday qilib asrab-avaylaysanmi?!

Boshimga urasan va urasan: dang-g, dang-g, dang-g!...

O'zing emas, gaping uradi.

Kunning qoq o'rtasi. Do'konda tushki uyquga ketgansan. Shiftga o'rnatilgan parrak ishlab turibdi. Uning ovozi boshimni aylantiradi. Gilamlar bir-birining ustiga taxlab tashlangan. Devorga ham osib qo'yilgan, yerning ustiga ham tashlangan, omborda ham... Sen bir burchakda uxbab yotibsan. SUrpdan tikilgan oq ko'ylageng tanangga yopishgan. Siyrak sochlaring terdan jiqla ho'il. Qamishdan to'qilgan yelpig'iching qorning ustida ko'tarilib-tushadi.

Gilam taxlamlari orasidagi ingichka yo'lakdan o'taman. Ularni sanasammi, deb o'yayman... Ular kitoblarga o'xshab qalin taxlab tashlangan. Ularni ochishim kerak. Ularni o'qishim kerak. Meni zo'rlab olib kelding, ha, zo'rlab olib kelding. Menga deding: "O'qish senga nima beradi?! Odam bo'lish, xoja bo'lish o'qiganlar emas, balki puldorlar erishadigan narsa!"

Onam sochlaring yuladi va yuziga chang soladi:

Hoji Noyib! Xudo haqqi, bolani tinch qo'ying! Qo'ying, bolam o'qisin! O'zi uchun odam bo'lsin!

Yuragim siqladi. Hamisha u bilan sening o'talarining bu jang-dan yuragim siqladi.

Meni o'zing bilan birga olib kelasan. Gardanimga urib olib kelasan. Gardanimga mushtlab-mushtlab do'konga olib kelasan. O'n to'rt yoshimda yordamching qilib olasan. Do'kon men uchun zindon bo'ladi.

Onam yig'laydi. O'zimni ko'rmayotganga olaman. U yig'layotganini ko'rmasligimni istaydi. Men ham uning yig'layotganini ko'rmayman. Kashta tikadi. Mato yuzasiga gul o'rniga pullarni qator qilib tikadi. Yig'layotganini ko'raman. Ammo ko'rmaganlikka olaman.

Ne-ne voqealar yuz bermadi. Ne-ne voqealar yuz bermoqda. Mening yordamchilik ishimdan ko'ngling to'q emas.

Do'kondorlikning uddasidan chiqa olishimga ishonmaysan.

Ota, uning qalbini qanday qilib vayron qila olding? Qanday qilib undan bu umidni, bu g'ururni, ayol bo'lish hissini o'g'irlashga erishding? Ota, qanday qilib bunday qila olding?... Sen yangi bir merosxo'rga ega bo'lishni istayapsan. Uxlayman. Shunchalik uxlaymanki, qaytib o'rnimdan turmayman. Otam reja tuzgan. Otamning mena bo'lgan umidi so'ngan. Unga tegirmonga tashlasa butun chiqadigan, qallob, zolim va firibgar bir merosxo'r kerak. Bir o'g'il bir erkak. Uni o'zim tarbiya qilaman. O'zim!

\* \* \*

Uyimizga yosh ayol keladi. Uning ko'zları sening yoshlik chog'laring-dagi ko'zlaringga o'xshab ketadi. Ona, sen mena tushuntirishga urinasan:

Hech farqi yo'q, bolam! U ham xuddi mendek, faqatgina bir oz yoshroq, xolos. Uyam sening onang. Senga uka olib kelib beradi: sening yoningga yondosh bo'ladijan uka.

Holim bo'lmaydi. Titray boshlayman. Mening onam? Bir begona ayol-a? U nega bizning uyimizda? Nega sening karavotingda uxlaydi? Nega sening kiyimlaringni kiyadi? Nega bizning dasturxonimiz atrofida o'tiradi? Nega uni "kichik beka" deb chaqirdilar? Men... nega uning ko'zlarga tik boqolmayman? Nega?

Ona, qo'ygin, bog'ning narigi tomoniga boray. Qo'ygin, paxtaxonaga boray.

Paxtaxonaga?!... O'g'lim, jinni bo'lib qoldingmi? Paxtalar ustiga?!

Ona, hamma yoq paxtaga to'la: xuddi bulutday, xuddi gulday, xuddi shamolday...

\* \* \*

Necha yil o'tdi? Necha yil orqamni bosib o'tib ketdi?

Onam bukchayganicha mato yuzasiga kashta tikadi. Qatim tortadi-da ruhining parcha-parcha bo'lib ketgan bo'laklarini bir-biriga tikib birlashtiradi: sening qo'llaringda parcha-parcha bo'lib ketgan ruhining bo'laklarini. Ota, bugun kechasi yosh xotining bilan qayerdasan? Biz qayerdamiz?

Yigirma shamli chiroq shu'lesi uning yuziga qirmizi tus bergan. Ota, qanday qilib ko'ngling bordi? Uni bunchalik xor qilishga qanday ko'ngling bordi? Bahona men edimmi? Mening lapashangligim va noshudligimmi? Mening "kitobxo'rligimmi"?

Boqqa o'zimni uraman: bog'ning narigi chekkasidagi paxtaxonaga. Paxtalar yumshoq va mehribon: xuddi enaga kabi, xuddi ona kabi. Boshimni yelkalariga qo'yaman-da yig'layman. Ular xuddi bulut kabi, xuddi bir belanchak kabi parchalanib ketganligim va yolg'izligim kattaligidagi bir belanchak kabi mehribon.

Belanchak u yoqdan-bu yoqqa borib keladi va meni bulutlarning narigi tomoniga eltadi.

Hashira yana qollarida haptori bilan boshimda turibdi. Boshini engashtirib so'raydi:

Alahsirayapsanmi?

Oh, yo'q! Agar "ha" desam, meni yana o'sha qavatga eltasizmi? Qo'l-oyoqlarimni bog'lab o'sha temir belanchakka solib qo'yasizmi?

Yig'layapsanmi?

Men...? Men...? Yig'layapman...?

Bo'limdan chiqib kelaman. U yerning havosi meni bo'g'adi.

Devordan oshib qochib ketayotgan chog'ida qo'lga tushib qolgan va nazoratchi Habib og'odan rosa kaltak yegan odamni ko'raman. Yo'l-yo'l ishton kiyib olgan, hamisha sonlarni teskari sanaydigan va hamisha raketaning uchishini kutib yuradigan bu odam hozir bir burchakda g'ujanak bo'lib organicha o'nya cho'mgan. Uning yonidan o'tib ketaman.

Binafsharang dunyo, za'faronrang dunyo, nafas olib bo'lmaydigan qafas, zanjir, devor va to'siq... Qaniydi bir umr ana shu shamshodlarning ortida yashirinib qolsa va barcha hamshiralar uni topisholmasa. O'shanda maysalar ustida cho'zilib yotish va yulduzga qadar chiqib borish mumkin bo'lardi. O'shanda oyning yelkasiga yuzlarini qo'ygancha to'yib yig'lardi.

\* \* \*

Kitobxo'r, yo'qot ko'zimdan kitobingni! Kel, yonimda o'tir va hisoblab ko'r. Yonimda o'tir-da o'rgan. Bir senga qarayman, bir odamlarning bolalariga va alamim keladi.

Ota, senga aytmadim: boshimni kitob varaqlarining orasiga qo'ysamgina nafas ololaman. O'n to'rt yoshimdan o'n to'qqiz yoshimgacha bo'lgan umrimni kimga sotib yubording?

Ota, agar kitobni yerga qo'ysam, o'zimni yo'qotib qo'yaman: sening do'koniningda, sening bog'ingda, sening yeringda...

Senga aytmadim, aytishga jur'at qilmadim. Men faqat senga qarardim, termulib-mo'litrab qarardim. Sen esa dod solarding: Onasi, o'g'il o'stirdingmi? Buning ahvoliga qara! Xuddi echkiga o'xshaydi! Xuddi echkiga o'xshab qaraydi!

Onam xafa bo'lardi va chiroyli ko'zları yoshga to'lardi:

Nega mena bunday gaplarni gapirasiz? O'g'lim biror gunoh ish qilibdimi?

Sen g'o'ldirarding, so'kinarding. So'ngra shimingni kiyib, hassangni qo'lingga olib ketvordaning.

Ota, sen bir bor bo'lsa-da, qayrilib qarmasdan ketarding.

\* \* \*

Gilamlar devor, devorlar esa tosh. Ravoqlar past... Nafasim siqiladi. Oyoqning terlagan hidi, kuyadorining hidi, og'ir va dim havoning hidi.

Men qayerdaman? Hamshira yana oldimga kelbdi. Yana haptori olib kelgan. Menden bir narsani so'raydi. Unga javob bermoqchi bo'laman. Ammo tilim og'ir. Boshimga hujum qilganidan so'ng tilim tutiladi.

Hamshira suv to'la stakan va bir necha haptorini qo'limga beradi. Sariqmi yoki moviy, farqi yo'q. Stakan cho'ziladi, so'ngra kengayadi. Panjalarim bilan tomog'ini siqaman. Biror narsa deyishim kerak. Aks holda bo'g'ilaman. G'azabimni hovuchimga olib siqaman. Hamshira qichqiradi. Qo'llarimdan qon oqadi. Yuzimni qo'llarim bilan yashiraman. Hozir... hozir otam keladi va dod soladi: "Lapashang! Mening mol-dunyoimni shunday qilib asramoqchimisan?! Shunday qilib-a?!"

Meni olib ketishadi: sudrab-ko'tarib, pastki qavatga. Hamshiraning aytishicha, stakanning siniqlari bilan unga hujum qilibman. Men-a? Menda shunchalik jur'at bor ekanmi?

Hamshiraning ko'zları xuddi uning ko'zlariga o'xshaydi: onamning o'rniga kelgan o'sha ayolning, onamni ranjitgan va yig'latgan

o'sha ayloning.

Ota, qalbimni vayron qilding: hali soppa-sog' bo'lishi mumkin bo'lган qalbimni.

\* \* \*

Otam meni ko'rgani keldi. Doktor qo'llarimni yechishlarini buyurdi. Otam menga olma va mandarin olib kelibdi. Yosh xotinini ham o'zi bilan birga olib kelgan. Qo'lida bir dasta nargis guli bilan. Nargis gullari xuddi onamning ko'zlari kabi yoshga to'la.

Ota, gilamlaringni nima qilding?

Zahxanda kulaman.

Nega ularni olovga tashlading? Men senga nima yomonlik qilgan edim?!

Ota, do'koning yonib ketdimi? Xuddi kartoshkagullarday, xuddi onamning qalbiday? Onamni qayoqqa jo'natding? Achchiqlab ketib qoldimi? Xuddi yarador qanotini sudrab ketgan kabutar kabi, yarador qalbini olib ketdimi? Chodirini boshiga tashladi-da, yosh to'la ko'zlari bilan ketib qoldimi? Ketarkan o'zining hamma narsasini: obro'-izzatini, yosligini, o'g'lini, mehr-muhabbatini tashlab ketdimi?

\* \* \*

Gilamlar bir-birining ustiga taxlab tashlangan. Xaridorlar kelishadi va ketishadi. Pul ustiga pul! Telefonlar jiringlaydilar. Sening noming chet ellargacha yoyilib ketgan. Kichik beka senga bir o'g'il olib kelib bergan. Onam achchiqlab ketib qolgan. Sen meni o'zing-ning do'koningga olib kelding. O'n to'rt yoshimdan o'n to'qiz yoshimgacha bo'lган umrimni kimga sotib yubording?

Kuyadorining hidi, oyoqlarning terlagan hidi, gilam patlarining hidi, yolg'on va qalloblik hidi, Ruqiya xola va nevarasining sovuq urgan yalang oyoqlarining hidi... Onam esa yo'q. Uning ko'z qorachig'idek bo'lган o'rni bilinadi.

Ota, bir martagina bo'lsa-da, menga yaxshilab qara! Menga qaraganningda ham ko'zingga men emas, pul ko'rindimi? Mening ko'z yoshamimni ham pul bilan o'lchaysanmi? Onamning vayron bo'lган qalbini hammi?

" Unga bir chek berdim: imzo qo'yilgan bo'sh chek. "Istagan narsangni yoz", dedim. Ammo ko'zlarim oldida yirtib tashladi.

Go'rga! Ketsa ketaversin. Axiyri bir kuni boshi devorga taq etib uriladiku! Unga yana nima kerak edi?! Hamma narsaga ega edi-ku?! Umuman nimaga ketib qoldi o'zi?"

" Hamma narsaga... Ammo senga ega emasdi-ku! Menga ham ega emasdi. G'ururga ham!"

" Ahmadim doktor bo'lismeni istayman. Uning o'qishini va odam bo'lismeni istayman."

Nargis gullari yig'laydilar: xuddi onamning ko'zlari kabi. Ularning za'faron rangi menga ozor beradi. Kichik beka menga qaraydi. U senga o'g'il olib kelib berdi, ammo uning o'g'li Ruqiya xolaning nevarasi kabi sholcha ustida uxlamaydi. U qonga botgan ohu tasviri tushirilgan o'sha gilamning ustida uxbaydi.

\* \* \*

Nega gilamlarni yoqib yubording, o'g'lim?! Mening suyangan suyanchig'im, katta o'g'lim! Men senga nima yomonlik qilgan edim?

!

Dastro'moling bilan ko'zlarining siqasan.

Demak sen ham yig'lashni bilasan! Demak qora toshning bag'rida haliyam bir buloq yashirinib yotibdi!

Menga olma artib berasan. Yuzimga tikilasan. Sen ham bechorasan. Qalin qoshlarining ostida ko'zlarining cho'kib ketadi.

Qo'lingni urib tashlayman:

Ket... Yig'lashimni ko'rmasingdan oldin ket!

Meni tinchitishga, oldimda qolishingga ruxsat berishga ko'ndirishga urinasan. Bilaklarining mahkam siqaman: xuddi bo'g'zimni siqib kelayotgan g'azab kabi. Kichik beka menga qaraydi. Ko'zlari qo'rquvga to'la. Uning tomog'idan bo'qqim keladi, uning ko'zlari ham yoshga to'lsin deb: xuddi onamning ko'zlari kabi, xuddi nargis gullari kabi. Sen dod solasan:

Hamshira! Hamshira!

Tutqanog'i tutdi deb o'ylaysan. Dahshatdan titraysan. Kulaman. Sening titrayotganidan quvonaman. Hamshira kelib bilagingni changalimdan ozod qiladi. O'zingni orqaga olasan.

Shundan so'ng boshqa kelmaysan. Bilamanki, endi hecham kelmaysan. Menga artib bergen olmangni axlat chelakka tashlayman. Menga ukol uradilar. To'ng'izlar! Meni jinni deb o'ylashadi. Bilishmaydiki, hammadan ham es-hushliman.

\* \* \*

Tasmalar qo'limning terisini qitiqlaydilar. Bir o'rgimchak devor yuzasiga to'r to'qiydi. Ko'paytirish jadvali miyamda yuqoriga borib-keladi. Paxtaxonaning eshigi ochiq. Shamol paxtalarni tashqariga uchiradi. Ruqiya xolaning nevarasi paxtalarning ostidan qochib chiqadi: xuddi qor ostidan qochib chiqqan jo'ja kabi.

Bog'cha sariq va moviy gullar bilan to'lgan. Devorga osilgan niqob kuladi. Kitoblarimni qayerga ko'mding, ota? Bolaligimni-chi? Onamni-chi?

Ko'kragini ostida kamalakning tasviri bo'lган bir qaldirk'ochning jasadi qo'limda. Uni qayerga ko'may? Bog'ning devorlari bunchalik baland! Biror-bir tuynuk yo'q. Kapalaklarining qanotlarini kim yulib oldi? Sen onamga: "Uni borib ko'rishga haqqing yo'q!" debsan. Mening senga bo'lган umidimni chilparchin qilding, ota. Pullaringning sanog'i bo'lган o'sha kunlar, sendan muhabbatning hidi kelib turgan, sen hali pulning asiri bo'lмаган o'sha kunlar qayoqqa ketdi? Undan so'ng nima bo'ldi? Sen qanday qilib asta-sekin bularning barchasidan uzoqlashding?

\* \* \*

Doktor meni xonasiga chaqirdi. Ustiga shisha qoplangan katta stolning ortida o'tirgancha mening parvozimni tekshirib ko'rardi. Men u bilan muloqotga kirisholmayman. Uning o'tkir nigohlari ostida titrayman. Qo'llarimni kamzulim cho'ntagiga yashiraman va titrayman. Ovozi keladi:

Xo'sh, gapir, ahvollaring qalay?

Ahvolum?

Oddiy savol. Ammo javobi-chi?... Unda nega tilim kalimaga kelmaydi? Nega tilim aylanmaydi? Nega miyamda qon yuguradi? Nega "men", "men", deyman-da, bir narsa tomog'imga kelib tiqilaveradi?

This is not registered version of TotalDocConverter

Xo'sh, "sen" nima?

Yig'lagim keladi... Savoliga javob bera olmayman. Yarador ohu to'g'risida gapirib bera olmayman. Ruqiya xolaning marvaridlari to'g'risida, ko'zlari yoshga to'la nargis gullari, onamning qanotlari va uning o'sha qanotlarini qo'litiqlari ostiga yiqqanicha ko'chaning burilishidan g'oyib bo'lgani to'g'risida so'zlab berolmayman.

Doktor menga palatamga ketaverishim mumkinligini aytadi. U mening hech narsa demaganligimdan noumid bo'ladi.

\* \* \*

Deraza ortidan yomg'ir yog'ishini tomosha qilish mumkin: kecha kechasidan boshlab ertalabgacha tinmay yog'ib chiqqan va haliyam yog'ayotgan yomg'irni...

Pastki qavatdaman. Yuqorida boshsiz odamlar yurishibdi. Boshesiz oyoqlar. Ammo bir juft katta-katta ko'z: nargis gullarining kattaligidek, yoshga to'la, hikoya va g'amga to'la bir juft ko'z havoda muallaq holda engashganicha menga tikilib qolgan. Ey xudoym, umi...? Onammi?

Choyshabni boshimga tortaman. Meni shu holatda ko'rishini istamayman. Ammo bir necha daqqa keyin eshikning og'zida paydo bo'ladi. Qo'lidagi shirinliklar qutisini karavotning ustiga otadi. O'zini ham. So'ng butun vujudi bilan zor-zor yig'laydi.

Ona, bu senmisan?! Qaytib keldingmi?!

Ha, bolam, qaytib keldim. Sening oqsochligingni qilish uchun qaytib keldim! Otangning, hatto kichik bekaning oqsochligini qilish uchun!

Ona, sen bekasan! Hali ham bekasan!

Birgalikda ugya borish uchun oldingga keldim. Ruqiya xolaning xonasiga, paxtaxonaga sen istagan joyga borish uchun... Menga so'zlab berishing uchun: suv va yulduzlar to'g'risida, ohu va tog'dagi sarv daraxti to'g'risida, sen borishni istagan har qanday joy, sening xayolingni band etgan har qanday narsa to'g'risida gapirib berishing uchun...

Oh chekaman-da, boshimni karavot panjarasiga qo'yaman.

Ona, g'ururing qayoqqa ketdi? Men tufayli, Hoji Noyib gilamfurushning mag'lubiyatga uchragan merosxo'ri tufayli sen ham mag'lubiyatga uchradingmi?

Doktor keladi.

Men... men siz bilan gaplashishim kerak, doktor.

Doktor jilmayadi:

Qadamizingizga hasanot.

Onam bilan birga uning kabinetiga boramiz. Stolining ustida bir dasta nargis gullari mehribonlik bilan menga qaraydilar. Engashib ulardan birini olaman va onamning qo'liga tutaman. Doktor menga qaraydi. Uning qarshisidagi stulga o'tiraman-da gapirishga urinaman. Nargis gullarining ko'zlarida yosh halqalanadi...

Б†‘ Shulla eronliklarning milliy taomlaridan biri, yorma va sabzavotlardan tayyorlanadi, bizdagi shovlaga o'xshash (Tarj.).